

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.1.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOBOKALONOV SUHROBJON RAMAZONOVICH

**TURISTIK HUDUDLARNI JOZIBADOR DESTINATSIYALARGA
AYLANTIRISHNING KONSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of science (DSc) in economics

Bobokalonov Suhrobjon Ramazonovich

Turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida).....3

Бобокалонов Сухробжон Рамазонович

Совершенствование концептуально-методологических основ преобразования туристических регионов в привлекательные дестинации (на примере Бухарской области).....33

Bobokalonov Suhrobjon Ramazonovich

Improving the conceptual and methodological basis for transforming tourist regions into attractive destinations (on the example of Bukhara region).....65

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works69

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.1.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOBOKALONOV SUHROBJON RAMAZONOVICH

**TURISTIK HUDUDLARNI JOZIBADOR DESTINATSIYALARGA
AYLANTIRISHNING KONSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/Iqt810 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xamidov Obidjon Xafizovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Alimova Mashhura Tayirxanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Safarov Bahodirxon Shahriyorovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.1.72.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «16» may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz.)

653 Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 224-67-00, faks.: (99 865) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «28» aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil «28» aprel dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).



B.N.Navruz-Zoda
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

D.Sh.Yavmutov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

A.O.Ochilov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon turizm bozori integratsiyalashuvi natijasida turistik destinatsiyalarning jozibadorligini oshirish masalasi birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, turistik destinatsiyalarning imidjini mustahkamlash, strategik marketing siyosatini izchil olib borish asosida jozibadorligini oshirish evaziga turistik oqimining barqaror o'sishiga erishilmoqda. "2024-yilda turizm sohasi jahon yalpi ichki mahsulotining 9,1%ni, ya'ni 191,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan, 24,2 mln kishi sohada ish bilan band"¹ bo'lib, turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish orqali raqobatbardoshlikka erishish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etib, ushbu muammoga oid konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirish lozim.

Jahon globallasuvi sharoitida turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, destinatsiya jozibadorligini baholash usullari, destinatsiyaning raqamli jozibadorligini baholash metodikasini ishlab chiqish, strategik marketing va destinatsion menejmentning institutsional asoslarini, shuningdek destinatsiyalarning raqamlashganlik indeksini aniqlashga oid metodologiyani takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

O'zbekistonda jozibador destinatsiyalarni shakllantirish asosida global darajada raqobatbardosh turizm xizmatlarini tijoratlashtirish orqali sohadan keladigan daromadni barqaror oshirib borishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln. nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln. nafarga yetkazish"² belgilangan. Ushbu natijalarga erishish jarayonida Buxoro viloyatida joylashgan turizm salohiyati yuqori qishloqlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish asosida turistik paketlarning diversifikatsiyasini amalga oshirishga qaratilgan, shu bilan birga turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlarni olib borish zaruratidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-sonli "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 26-iyuldagi PF-111-son "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son "Turizm, madaniy meros va sport sohaslarida davlat

¹ <https://wtcc.org/research/economic-impact/economic-impac>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>

boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktyabrdagi 606-son “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-sentyabrdagi 543-son “2022-2026-yillarda “Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli turli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, University of Melbourne (Avstraliya), The University of Calgary, World Tourism Education and Research Centre (Kanada), School of Leisure and Food Management Sheffield Hallam University (Buyuk Britaniya), International Center for Tourism and Hospitality Research, Bournemouth University (Buyuk Britaniya), Queensland University of Technology (Avstraliya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Bocconi University (Italiya), Universita di Trento (Italiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universitetida olib borilmoqda.

Turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar asosida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan:

³Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi University of Melbourne (Avstraliya), The University of Calgary, World Tourism Education and Research Centre (Kanada), School of Leisure and Food Management Sheffield Hallam University (Buyuk Britaniya), International Center for Tourism and Hospitality Research, Bournemouth University (Buyuk Britaniya), Queensland University of Technology (Avstraliya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Bocconi University (Italiya), Universita di Trento (Italiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti veb-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

destinatsiya raqobatbardoshligi va barqarorligi modeli qiyosiy va raqobat ustunliklari yondashuvi asosida ishlab chiqilgan (The University of Calgary, Kanada); destinatsiyalar raqamli jozibadorligini oshirishning turistik portal modeli, portallar sifatini baholashning 2QCV2Q uslubiyoti ishlab chiqilgan (Universita di Trento, Italiya); turizmni barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va institutsional rivojlantirish qonuniyatlari asoslangan (University of Melbourne, Avstraliya); digital divide (raqamli tafovut) konsepsiyasi yaratilgan va uning destinatsiya jozibadorligiga ta'sirini baholash metodikasi ishlab chiqilgan (Bournemouth University, Buyuk Britaniya); tarmoq nazariyasi ishlab chiqilgan va destinatsiya jozibadorligiga ta'siri baholangan (Bocconi University, Italiya); turistlar talabini qondirishning iqtisodiy, sotsiopsixologik, demografik va ekologik jihatlari uyg'unligi asoslangan (Korea Development Institute, Janubiy Koreya); globallashtirish sharoitida turizm sohasini boshqarishning marketing strategiyasi takomillashtirilgan, mamlakat turistik jozibadorligi hamda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarish samaradorligini baholashga erishilgan, hududiy turizm bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalari takomillashtirilgan (Buxoro davlat universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – O'zbekiston Respublikasi).

Turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi sohalarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: destinatsiya jozibadorligini zamonaviy marketing vositalarini qo'llash orqali oshirish; destinatsiyalarning raqobat ustunliklarini aniqlash bo'yicha empirik tadqiqotlar; turizm qishloqlarini shakllantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish; turistik yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish orqali sayohat davomiyligini oshirish va hokazo.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Destinatsiya jozibadorligini oshirishda strategik marketing va menejmentning ilmiy-amaliy jihatlari, turizm qishloqlarini rivojlantirishda tizimli yondashuv, destinatsiyalarning qiyosiy va raqobat ustunliklari, narx, mahalliy aholining turizmni rivojlantirishdagi o'rni kabi masalalar xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Jumladan, G.Crouch, M.Porter, S.Hassan, L.Dwyer, Ch.Kim, E.Azzopardi, D.Gomezelj, B.Bramvel, T.Mihalic kabilarning ilmiy izlanishlari alohida e'tirofqa loyiq⁴.

⁴ Crouch G. I., Ritchie J. R. B. Tourism, competitiveness, and societal prosperity //Journal of business research. – 1999. – T. 44. – №. 3. – 137-152 pp.; Porter, Michael. The competitive advantage of nations, Macmillan: London. - 1990. 250 pp.; Hassan, Salah. "Determinants of Market Competitiveness in an Environmentally Sustainable Tourism Industry" Journal of Travel Research, 38 (February): 2000, 239-245 pp.; Dwyer, Larry, and Chulwon Kim. "Destination Competitiveness: determinants and indicators" Current Issues in Tourism, 2003, 6 (5): 369-414 pp.; Azzopardi E. The international competitiveness of Malta as a tourist destination: дис. – 2011.; Doris Gomezelj Omerzel, Competitiveness of Slovenia as a Tourist Destination. Managing Global Transitions 4 (2): 2006, 167–189 pp.; Bramwell B., Lane B. Critical research on the governance of tourism and sustainability // Journal of Sustainable Tourism. 2011. № 19(4/5). 411–421 pp.; Mihalic, T., 2000. Environmental management of a tourist destination: a factor of tourism competitiveness. Tourism Management, 21(1), 65-78 pp.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida destinatsiya jozibadorligi muammosining nazariy hamda uslubiy jihatlari N.S.Morozova, V.S.Senin, V.S.Bogolyubov, V.P.Orlovskaya, V.A.Kvartalnov, Yu.F.Volkov kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda olimlar tomonidan destinatsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari keng tadqiq etilgan⁵.

O'zbekistonlik olimlardan B.N.Navruz-Zoda, O.X.Xamidov, N.Tuxliyev, D.Sh.Yavmutov, M.M.Muxammedov, D.X.Aslanova, N.S.Ibragimov, I.S.Tuxliev, A.J.Abdullayev, A.A.Qodirov, X.R.Xamroev, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, G.R.Xidirova, M.T.Alieva, A.T.Mirzayev, U.R.Matyakubov, S.Sh.Xalilovlarning tadqiqotlari turistik hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli masalalariga bag'ishlangan⁶.

Hozirgi kunda O'zbekistonda turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslari, jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy jihatlari, turistik hududlarni destinatsiyalarga aylantirishning institutsional omili, turistik hududlarni boshqarish organlarining jozibador destinatsiyalarni shakllantirishga qaratilgan strategik marketing va menejment yondashuvlari, "Raqamli tafovut" (Digital divide) yondashuvi asosida destinatsiya jozibadorligini baholashning "raqamlashganlik indeksi" kabi masalalarni tadqiq etish zarurati mavjud.

⁵Морозова Н.С.Теория и методология формирования и развития конкуренции в туризме // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. - Сочи 2012, 46 с.; Сенин В.С. Организация международного туризма // М.: «Финансы и статистика» 2004, - 379 с.; Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма // М.:2005. 151 с.; Квартальнов В.А. Туризм: // - М.: Финансы и статистика, - 2003. 320 с.; Квартальнов В.А. Туризм: теория и практика: Избранные труды: В 5ти. т. // - М.:Финансы и статистика, 1998; Волков Ю.Ф. Экономика гостиничного бизнеса // Изд. 2-е.- Ростов н/Д.: Феникс, - 2005. 380 с.

⁶ Navro'z-Zoda B.N. umumiy tahriri ostida. Turistik hudud raqobatbardoshligi //monografiya – Buxoro, 2017. 150 b.; Xamidov O.X. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish: muammo va yechimlar // Monografiya. – T.:Iqtisodiyot, 2016. 203 b.; Tuxliev N., Abdullaeva T. Национальные модели развития туризма // –Т.: Гос. Науч. Изд-во "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. 386 б.; Yavmutov D.Sh., Opportunities for the development of non-traditional tourism in Bukhara. XVII International scientific survey of problems of economics, finance and management. Boston, USA. May 24-25, 2020. – R. 15-21; Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari // - S.: Zarafshon 2007. 299 b.; Aslanova D.X. Модели формирования туристского кластера за рубежом // Сервис, 2013. - №1. С.4-9; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // [Matn] : monografiya. - Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. - 204 b.; Tuxliev I.S., Qudratov G' H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish //– T. «Iqtisod-moliya». 2010. 263 b.; Abdullayev A.J.// Diniy turizm va diniy meros: turizm rivojlanish omili vol. 5 no. 1 (2025): boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali; Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish. diss. avtoref. – Samarqand, 2024. –68 b.; Khamroev Khalim. The citadel ark of Bukhara as the most important tourist destination of the city/Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 5, 2021. 74-82.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - S.: SamISI, 2017. 265 b.; Safarov B.Sh., Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // – T.: Fan va texnologiya, 2016, 184 b.; Xidirova G.R. Ichki turizm xizmatlarini shakllanishida talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikni baholash. // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. 2021-yil 6-son. - 250-263 b.; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. 78 b.; Mirzaev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –68 b.; Matyakubov U.R., Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish //Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2022. 78 b.; Xalilov S.Sh., Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish // Doktorlik dissertatsiyasi. TDIU, 2024-y. 212 b.

Tadqiqotlarda ushbu masalalar bo'yicha ayrim nazariy va metodologik natijalar olingan, lekin ularda turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish yetarlicha yoritilmagan bo'lib, tanlangan tadqiqot predmetining dolzarbligidan dalolat beradi. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini belgilashga asos sifatida xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining №HTR-03 "Hududiy turizmni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha Buxoro viloyati uchun ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish;

jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

turistik hududlarni destinatsiyalarga aylantirishning institutsional omili, davlat tomonidan boshqarish modellarining xorij tajribasi;

Buxoro viloyati turizm sohasining hozirgi holati, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining umumiy tahlili va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish;

turizm qishloqlari yondashuvining konseptual asoslari, qiyosiy tahlili, joziborlik xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

Buxoro viloyatida turizm qishloqlarini yaratish orqali turistik oqimni oshirishning istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

turistik hududlarni boshqarish organlarining jozibador destinatsiyalarni shakllantirishga qaratilgan strategik marketing va menejment yondashuvlarini tadqiq etish;

"Raqqamli tafovut" (Digital divide) yondashuvi asosida destinatsiya jozibadorligini baholashning "raqamlashganlik indeksi" metodikasini ishlab chiqish;

turizm destinatsiyalari jozibadorligini baholashning "22 omilli" metodikasini Buxoro viloyati tumanlariga qo'llash;

"Silk Road Stations" turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholash;

Shirin qishlog'ida etno-turizm muhitini yaratish va uni jozibador destinatsiyaga aylantirish istiqbollari baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyatidagi turizm salohiyati yuqori turistik hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat xo'jalik yurituvchi subyektlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Buxoro viloyatidagi turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, qiyosiy va kontent tahlil, ekspert baholash, monografik kuzatuv, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyot uslubiy yondashuviga ko'ra "jozibador destinatsiya" tushunchasi, imidjni saqlab qolish va rivojlantirish, integratsiyalashgan raqamli axborot makonida virtual jozibadorlik muhitini shakllantirish qobiliyatiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

digital divide (raqamli tafovut) konsepsiyasi negizida destinatsiya jozibadorligini baholashning "raqamlashganlik indeksi" metodikasi oliy, yuqori va past darajali "virtual jozibadorlik" toifalariga ajratish orqali takomillashtirilgan;

"turizm destinatsiyalari jozibadorligini baholashning "22 omilli" metodikasi asosida Vobkent tumanida "Shirin" hamda Peshku tumanida "Afshona" turizm qishloqlarini bunyod etish orqali turistik yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish va turistlarning destinatsiyada qolish muddatlarini uzaytirish taklifi ishlab chiqilgan;

mustaqil sayohatchilarning qadriyatlar tizimi va afzalliklarini inobatga olib Buxoro viloyati hududidan o'tuvchi A-380 va M-37 avtomagistrali yo'l bo'yida "Silk Road Stations" turizm rastalarini qurish asosida mamlakat turistik taklif tizimi salohiyatini kengaytirish ilmiy asoslangan;

Buxoro viloyatida turizm qishloqlarini yaratish orqali turistik oqimni oshirish imkoniyatini beruvchi oilaviy mehmon uylar sonining polinimal trend tenglamasi asosida 2025-2028-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

"raqamlashganlik indeksi" metodikasini qo'llash orqali O'zbekiston viloyatlari o'rta daraja (50-80%), yuqori daraja (81-100%) va o'ta yuqori daraja (101-200%) larga toifalash asosida baholangan;

"turizm destinatsiyalari jozibadorligini baholashning 22 omilli" metodikasi vositasida "Oliy darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi", "Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi", "O'rta darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi" hamda "Jozibador bo'lmagan destinatsiya" singari toifalash taklifi ishlab chiqilgan;

Silk Road Stations rastalarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir o'tkazuvchi omillar klassifikatsiyalanib, loyiha doirasida xorijiy hamda mahalliy turistlar oqimini jalb etish va oshirib borish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan;

Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nuqtalari aniqlanib, mazkur destinatsiyani UNWTOning eng yaxshi turizm qishloqlari ro'yxatiga kiritish bosqichlari ishlab chiqildi;

"Shirin" MFY hududida qo'shimcha turistik xizmatlarni tashkil etish maqsadga muvofiqligi konseptual jihatdan asoslanib, "Shirin ethno house"

joylashtirish vositasiga tashriflardan olinadigan daromadning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) doirasida har yili e'lon qilinadigan Sayohat va turizm raqobatbardoshligi hisoboti (Travel and Tourism Competitiveness Report), Jahon turizm tashkiloti tomonidan har yil e'lon qilib boriladigan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilganligi va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Buxoro viloyati turizm salohiyati yuqori hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishga qaratilgan konseptual va metodik asoslarning takomillashtirilganligida ifodalanib, turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan taklif etiladigan turistik yo'nalishlar spektrini kengaytirish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiyadan olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan Buxoro viloyatidagi salohiyati yuqori turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish orqali turistik xizmatlar ko'lamini kengaytirish, turizm qishloqlarini yaratish orqali mahalliy aholi farovonligini oshirish, mamlakat turistik imidjining jozibadorligini oshirish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, Buxoro viloyatiga yil davomida tashrif buyurish mumkin bo'lgan turizmning kreativ va innovativ shakllarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Turoperatorlik faoliyatini tashkil qilish", "Turistik destinatsiyalarni boshqarish", "Raqamli turizm", "Kreativ turizm" kabi fanlarning o'quv dasturlari, darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoro viloyatidagi turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar asosida:

raqamli iqtisodiyot uslubiy yondashuviga ko'ra "jozibador destinatsiya" tushunchasi imidjni saqlab qolish va rivojlantirish, integratsiyalashgan raqamli axborot makonida virtual jozibadorlik muhitini shakllantirish qobiliyatiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarorining 3-ilovasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil "12"-dekabr 03-12-17-9132-sonli ma'lumotnomasi).

Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Buxoro viloyatidagi turizm salohiyati yuqori hududlarning jozibadorligi oshishiga, ichki va xalqaro turistik oqimning mutanosib taqsimlanishiga asos bo'lgan;

digital divide (raqamli tafovut) konsepsiyasi negizida destinatsiya jozibadorligini baholashning "raqamlashganlik indeksi" metodikasi oliy, yuqori va past darajali "virtual jozibadorlik" toifalariga ajratish orqali takomillashtirish bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarorining 4A-ilovasining 3-bandida ko'rsatilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil "12"-dekabr 03-12-17-9132-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Buxoro viloyatidagi salohiyati yuqori turizm qishloqlarining kotentlarini boyitish, ular haqida potensial sayyohlarning xabardorligini oshirish imkoni yaratilgan;

turizm destinatsiyalari jozibadorligini baholashning "22 omilli" metodikasi asosida Vobkent tumanida "Shirin" hamda Peshku tumanida "Afshona" turizm qishloqlarini bunyod etish orqali turistik yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish va turistlarning destinatsiyalarda qolish muddatini uzaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son qarorining 2-ilovasini ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil "12"-dekabr 03-12-17-9132-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Buxoro viloyatiga sayohat davomiyligini 1,5 kunga oshirish imkoni yaratilgan;

mustaqil sayohatchilarning qadriyatlar tizimi va afzalliklarini inobatga olib Buxoro viloyati hududidan o'tuvchi A-380 va M-37 avtomagistrali yo'l bo'yida "Silk Road Stations" turizm rastalarini qurish asosida mamlakat turistik taklif tizimi salohiyatini kengaytirish bo'yicha taklifi "2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son qarorning 2-ilovasini ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil "12"-dekabr 03-12-17-9132-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur loyihaning ishga tushirilishi natijasida jami 600 nafar kishining doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishi hamda mustaqil turizm infratuzilmasining kengayishi imkoni yaratilgan;

Buxoro viloyatida turizm qishloqlarini yaratish orqali turistik oqimni oshirish imkoniyatini beruvchi oilaviy mehmon uylar sonining polinimal trend tenglamasi asosida ishlab chiqilgan 2025-2028-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrdagi 2022 — 2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risidagi 543-sonli Qarorining 2-ilovasida belgilangan maqsadli parametrlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil "12"-dekabr 03-12-17-9132-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi turistlar sonining 3,2 barobarga oshishi, natijada shunga mos bo'lgan qishloqlarda oilaviy mehmon uylari tashkil etish orqali mehmon uylari sonini 2024-2028-yillar davomida 2,6 barobarga oshirish diapazonga teng maqsadli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan hamda monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 227 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **"Turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual, metodologik, ilmiy-nazariy va institutsional asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslari, jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy jihatlari, turistik hududlarni destinatsiyalarga aylantirishning institutsional omili, davlat tomonidan boshqarish modellarining xorij tajribasi tadqiq etilgan.

Turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish mavzusiga doir adabiyotlarni tadqiq etish jarayonida, ayni mavzuga a)destinatsiya imidji, b)jozibadorlik omili, c)raqobat muhiti, d)talab va taklif, f)jozibadorlikni baholash, g)mehmondo'stlik biznesi, h)klasterlashtirish va i)ijtimoiy media marketing yondashuvlari mavjudligi aniqlandi.

Destinatsiyaning jozibadorlik omillari asosan turistik oqimni jalb qila olish qobiliyatiga hamda potensial turistlarning turli darajadagi ehtiyojlarini sifatli

qondira olishiga bog'liqligini qo'llab-quvvatlagan holda, sayohatgohlarning jozibadorlik imidjini saqlab qolish va rivojlantirish, integratsiyalashgan raqamli axborot makonida virtual jozibadorlik muhitini shakllantirish qobiliyati, bugungi yuqori bozor raqobati sharoitlarida o'ta muhim omillar toifasiga kiradi, degan yondashuvni ilgari suramiz. Shuningdek, turistik oqimni hosil qilish qobiliyatining uzviy davomi o'laroq, uni to'g'ri boshqarish, yo'naltirish, mavsumiy o'zgarishlar fonida yangilanuvchan va dinamik talablarga moslashish, texnologik transformatsiya davriga xos bo'lgan xususiyatlarni inobatga olgan holda xizmatlar taklifi salmog'ini oshirish va strategik rejalarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Destinatsiyalar borasidagi ko'p sonli ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida, destinatsiya oltita asosiy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, bular 1) xizmatlardan keng miqyosda foydalanish, 2) destinatsiyaning bo'linmasligi, 3) xizmatlarga talabning mavjudligi, 4) infratuzilma, 5) diqqatga sazovor joylarning mavjud ekanligi hamda 6) madaniy qiymatga egalik kabilardir (1-rasmga qarang). Muallif fikriga ko'ra, destinatsiyalar jozibadorligi aynan mana shu olti xususiyat doirasida shakllanadi va unikal bozor taklifini amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltirilishida asosiy tayanch nuqta vazifasini bajarib, potensial turistlarga yo'naltiriladigan yuqori sifatli turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi va natijada destinatsiya faoliyat yuritayotgan mamlakat (agar u mamlakat hududi tarkibida bo'lsa) turizm sanoatining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.



1-rasm. Destinatsiyaning xususiyatlari⁷

⁷ muallif ishlanmasi

Nazariy va tahliliy xulosalarga asoslangan holda muallif fikriga ko'ra, destinatsiya jozibadorligi bu – *turistning ma'lum bir turistik hududni tanlashdagi afzalliklariga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi sayohatgoh muhiti hamda tashrif maqsadi yo'naltirilgan hududning tashqi va ichki muhitiga xos xususiyatlar majmuasidir*. Destinatsiyani tanlash afzalliklari deganda turistlar tomonidan raqobatchi turizm destinatsiyalari yoki turizm hududlari tomonidan taklif etilayotgan turli shakldagi xizmatlar, turistik mahsulotlar iste'moliga emas aynan ma'lum bir jozibador destinatsiyada yaratilgan turmahsulotlarga potensial sarflanadigan mablag'larni yo'naltirishni ustun ko'rishga asos bo'luvchi, jalb qilish qobiliyatiga ega bo'lgan xususiyatlar majmuasining turist nazaridagi ustuvorliklari tushuniladi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida qaraladigan bo'lsa, destinatsiya jozibadorligi – *destinatsiya faoliyatining samarali rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, uning raqobatbardoshligini shakllantirish va oshirish bo'yicha turizm tadbirkorlik subyektlararo munosabatlari tizimidir*. Destinatsiya faoliyatining samarali rivojlanishini qo'llab-quvvatlash deganda tadbirkorlik subyektlarining mavsumiylik omillari yoki turizm bozoridagi o'zgarishlar, xususan xizmatlarga nisbatan talabning oshishi yoki pasayishi, turli iqtisodiy ta'sirlar sharoitida moslashuvchanlik sifatlarini namoyon etish, xizmat ko'rsatish darajasini, qamrovini oshirish ustida sayohatgoh va o'z manfaatlari umumiyligi doirasida davomli ravishda ish olib borishlari tushuniladi.

Dissertatsiyaning **“Buxoro viloyatida jozibador destinatsiyalarning rivojlanish tendensiyalari va turizm qishloqlarini shakllantirish imkoniyatlarining umumiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro viloyati turizm sohasining hozirgi holati, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining umumiy tahlili va rivojlanish tendensiyalari, turizm qishloqlari yondashuvining konseptual asoslari, qiyosiy tahlili, joziborlik xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari, Buxoro viloyatida turizm qishloqlarini yaratish orqali turistik oqimni oshirishning istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan.

Buxoro viloyati asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida xizmatlar sohasining ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi viloyatda 53 232,3 milliard so'mga yetgan va 2022-yilga nisbatan 15,4% ga oshgan (1-jadval). Yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar sohasi ulushi 19 294,1 milliard so'mni tashkil etib, o'sish ko'rsatkichi 36,2 %ni tashkil etgan.

Tahlillar natijasida viloyat bo'yicha 2023-yilda jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2022-yilga nisbatan solishtirganda sezilarli miqdorda – 3445,30 milliard so'mga oshib, 21,7 foizga o'sishga erishilgani aniqlandi (1-jadval). Ahamiyatlisi pandemiyadan oldingi 2019-yil bilan qiyoslaganda umumiy o'sish ko'rsatkichi 10 880,90 milliard so'm yoki 129,3 foizga oshgani ma'lum bo'ldi.

Buxoro viloyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlari⁸

	O'lchov birligi	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y. yanvar-iyun
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd. so'm	28143,3	31 593,4	38 350,1	46 126,2	53 232,3	25 663,4
	O'sish sur'ati, %da	106,3	102,8	106,5	105,0	105,2	106,3
Sanoat mahsuloti	mlrd. so'm	14798,2	17574,4	20 772,1	27 202,4	31860,4	16669,4
	O'sish sur'ati, %da	110,5	100,6	100,1	106,0tdi.	106,3	106,8
Iste'mol tovarlari	mlrd. so'm	5311,1	6701,9	8 570,2	4 899,6	6 052,1	x
	O'sish sur'ati, %da	105,9	113,5	114,9	103,2	105,6	x
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	mlrd. so'm	19436,2	24367,5	29 170,4	34 102,9	38 398,6	15 102,2
	O'sish sur'ati, %da	103,4	101,6	104,9	103,6	104,0	103,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd.so`m	10366,6	12183,9	20 528,3	21 638,3	31 030,5	24 423,5
	O'sish sur'ati, %da	95,9	104,7	147,4	94,2	132,2	145,4
Qurilish ishlari	mlrd.so`m	4368,1	5659,8	7 401,1	8 448,7	9 468,8	5 893,4
	O'sish sur'ati, %da	114,9	117	111,8	101,5	103,7	111,1
Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd.so`m	10309,2	12072,8	14 605,3	15 522,0	18 167,1	8 496,4
	O'sish sur'ati, %da	107,7	100,4	109,3	108,0	106,2	107,6
Xizmatlar, jami	mlrd.so`m	8 413,2	9 843,1	12 574,1	15 848,8	19 294,1	10 493,8
	O'sish sur'ati, %da	113,3	106,1	118,0	115,7	110,7	110,0
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh. Dollari	1 259,4	831,2	1 080,9	1 224,8	1 212,3	648,2
	O'sish sur'ati, %da	138,2	66,0	142,1	103,7	99,0	99,4
Eksport	mln. AQSh. Dollari	265,8	231,1	312,1	306,5	301,4	137,7
	O'sish sur'ati, %da	142,0	86,9	135,1	98,2	98,0	94,6
Import	mln. AQSh. Dollari	993,6	600,1	868,8	918,2	910,9	510,5
	O'sish sur'ati, %da	137,2	60,4	144,8	105,7	99,2	100,8
Saldo	mln. AQSh. Dollari	-727,8	-369,0	-556,7	-611,7	-609,5	-372,8
	O'sish sur'ati, %da	x	x	x	x	x	x

Buxoro viloyatida turizm sohasi rivojlanishini makro yoki mezo darajada modellashtirish faoliyatning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi eng muhim omillarni boshqarishga asoslanadi. Ushbu omillarni ajratib olish va ularning natijaviy omil, ya'ni sohaning yalpi xizmatlari hajmiga ta'siri asosidagi omilli modellar korrelyatsion-regression tahlil asosida amalga oshiriladi hamda natijaviy ko'rsatkichning tuzilgan ekonometrik modellar orqali hisoblangan prognozlarini yordamida faoliyatni tashkil etishning ssenariylari ishlab chiqishda turizm qishloqlarini yaratish va ular orqali turistik oqimni oshirishga ta'sir etuvchi omillar quyidagi bir nechta muhim yo'nalishlarda o'z ifodasini topmog'i lozim ekan. Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi turistlar sonini prognoz qilishi uchun qarab

⁸ <https://www.buxstat.uz/uz/rasmiy-statistika/asosiy-iqtisodiy-ko-rsatkichlar>

chiqilgan modellar ichida ishonchlilik darajasi yuqori bo'lgan model quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$(1 - L)TS = 47,6 * t - 922,8 * D$$

Bu yerda: TS – Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan turistlar soni, ming kishi; t – trendni ifodalaydi, ya'ni $t=1,2,3\dots$; D – pandemiya ta'sirini hisobga olish uchun kiritilgan qo'shimcha omil.

Taklif qilinayotgan modelning ishonchlilik darajasi hamda modeldagi koeffitsiyentlar adekvatligini asoslash uchun zarur bo'lgan mezonlar taqdim qilingan (2-jadval).

2-jadval

Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan turistlar sonini prognoz qiymatlarini hisoblash uchun ishlab chiqilgan model natijalari⁹

Model 17: ARMAX, using observations 2015-2023 (T = 9)					
Dependent variable: (1-L) TS					
	Coefficient	Std. Error	z	p-value	
Time	47.5881	11.4400	4.160	<0.0001	***
D	-922.816	224.176	-4.116	<0.0001	***
Mean dependent var	144.3222		S.D. dependent var	391.4446	
Mean of innovations	-38.67098		S.D. of innovations	209.3855	
Uncentered R-squared	0.892040		Centered R-squared	0.749642	
Log-likelihood	-59.73713		Akaike criterion	123.4743	
Schwarz criterion	123.8687		Hannan-Quinn	122.6230	

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki z – statistika natijalari barcha koeffitsiyentlarni adekvatligini asoslaydi, shuningdek ehtimollik ko'rsatkichi p -qiymat ularning ishonchlilik darajasi 99 foizdan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Determinatsiya koeffitsiyenti 0,89ni tashkil qilgani holda omillarning natijaviy omildagi o'zgarishlarning 89 foizini qamrab olayotganligini asoslamoqda. Ushbu keltirilgan natijalar taklif qilinayotgan model asosida viloyatga tashrif buyurayotgan turistlar sonini prognoz qilish mumkinligini asoslamoqda. Natijada ushbu modeldan foydlangan holda 2025-2028-yillarga viloyatga tashrif buyuruvchi turistlar sonini prognoz qiymatlari hisoblab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan turistlar sonining prognoz qiymatlari¹⁰

For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$				
Yillar	Prognoz qiymatlari	Oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati	Standart xatolik ko'rsatkichi	95 foizlik interval qiymatlari
2025	2482	129,9	296,116	(1901,95, 3062,70)
2026	3101	124,9	362,666	(2390,16, 3811,78)
2027	3767	121,5	418,771	(2946,43, 4587,98)
2028	4481	118,9	468,2	(3563,37, 5398,68)

Buning uchun turli alternativ modellar qarab chiqilda, ammo ularni

⁹ Muallif ishlanmasi

¹⁰ Muallif ishlanmasi

ishonchlilik darajasini asoslash, koeffitsiyentlar adekvatligini asoslashda muammolarga duch kelingani sababli, kvadratik modeldan foydalanishga qaror qilindi. Model quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

$$JV = 61,9 + 5,3 * t^2$$

Bu yerda: JV - Buxoro viloyatidagi joylashtirish vositalari soni (birlik).

Modelda keltirilgan koeffitsiyentlar Styudent mezoni natijalariga ko‘ra adekvat bo‘lib, ulardan foydalanish mumkinligi kuzatilmogda. Modelning umumiy ishonchlilik darajasini asoslashga xizmat qiluvchi determinatsiya koeffitsiyenti ham talab darajasida, ya’ni 0,95 ga tengligini kuzatish mumkin (4-jadval).

4-jadval

Buxoro viloyati joylashtirish vositalari sonini prognoz qiymatlarini hisoblash uchun ishlab chiqilgan model natijalari¹¹

Model 24: OLS, using observations 2014-2023 (T = 10)					
Dependent variable: JV					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	61.8908	21.0773	2.936	0.0188	**
t2	5.28595	0.418767	12.62	<0.0001	***
Mean dependent var	265.4000		S.D. dependent var	185.1193	
Sum squared resid	14745.47		S.E. of regression	42.93232	
R-squared	0.952191		Adjusted R-squared	0.946214	
F(1, 8)	159.3313		P-value(F)	1.46e-06	
Log-likelihood	-50.66992		Akaike criterion	105.3398	
Schwarz criterion	105.9450		Hannan-Quinn	104.6760	
rho	0.398018		Durbin-Watson	1.171485	

Fisher mezoni natijalari modelning umumiy mosligi va ishonchliliga to‘g‘risidagi xulosalarimizni asoslaydi. Chunki, hisoblangan qiymat 159,3ni tashkil qilgani holda uning jadval qiymati 3,46ni tashkil qilmoqda va aniqlangan qiymatga nisbatan kichik ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Modelda avtokorrelyatsiya muammosi mavjud yoki yo‘qligini tekshirish uchun keltirilgan Durbin-Uatson mezoni natijalari 1,17 ga teng ekanligini ko‘rish mumkin. Ushbu mezonning jadval qiymati esa DL=0,61 va DU=0,91 ga tengligi muammo mavjud emasligini asoslaydi. Xullas mazkur model asosida prognoz qiymatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi (5-jadval).

5-jadval

Buxoro viloyati joylashtirish vositalari sonining prognoz qiymatlari¹²

For 95% confidence intervals, t(8, 0.025) = 2.306				
Yillar	prognoz qiymatlari	oldingi yilga nisbatan o‘shish sur‘ati	Standart xatolik ko‘rsatkichi	95 foizlik interval qiymatlari
2025	823	117,3312	63,0822	(677,600, 968,536)
2026	955	116,0557	70,8098	(791,929, 1118,50)
2027	1098	114,9414	79,8603	(913,779, 1282,10)
2028	1251	113,9616	90,1506	(1043,34, 1459,12)

¹¹ Muallif ishlanmasi

¹² Muallif ishlanmasi

Buxoro viloyatida jozibador destinatsiyalarni rivojlantirish va turizm qishloqlarini shakllantirish imkoniyatlaridan foydalangan holda qishloqlarda oilaviy mehmon uylari tashkil etish orqali turistlarga mahalliy turmush tarzini yaqindan ko‘rish imkoniyati yaratiladi. Qishloq hayotini o‘zida mujassamlashtirgan oilaviy mehmon uylari hamda mehmon uylari sonini keyingi davr uchun prognoz qiymatlarini qarab chiqamiz. Ushbu ko‘rsatkichning mavjud tendensiyasi va o‘zgarishlarini tadqiq qilgan holda, birinchi darajali farqi statsionar ekanligi va quyidagi modeldan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

$$(1 - L)MY_t = 0,99 * e_{t-1} + 46,8 * D_1 + 0,19 * t^3$$

Bu yerda: JV - Buxoro viloyatidagi oilaviy mehmon uyi va mehmon uylari soni (birlik); D₁ – modelda omil sifatida qabul qilingan bo‘lib, ushbu omil 2019-yil uchun birni, qolgan yillarda nol qiymatini qabul qiladi; t³ – mavjud trendning uchinchi darajasi.

Z-statistika bo‘yicha olingan barcha natijalar uchala koeffitsiyentning adekvatligi va ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga determinatsiya koeffitsiyentining 0,97ni tashkil qilishi omillarning to‘g‘ri tanlanganligi va ishonchlilik darajasi yuqoriligini ko‘rsatadi (6-jadval).

6-jadval

Buxoro viloyatidagi oilaviy mehmon uyi va mehmon uylari sonini prognoz qiymatlarini hisoblash uchun ishlab chiqilgan model natijalari¹³

Model 51: ARMAX, using observations 2015-2023 (T = 9)					
Dependent variable: (1-L) MY					
Standard errors based on Hessian					
	Coefficient	Std. Error	z	p-value	
theta_1	0.999993	0.320005	3.125	0.0018	***
D1	46.8590	5.71742	8.196	<0.0001	***
t3	0.187156	0.0720581	2.597	0.0094	***
Mean dependent var	29.66667		S.D. dependent var	38.96794	
Mean of innovations	3.733822		S.D. of innovations	16.94280	
R-squared	0.975058		Adjusted R-squared	0.966745	
Log-likelihood	-39.39029		Akaike criterion	86.78058	
Schwarz criterion	87.56948		Hannan-Quinn	85.07814	
		<i>Real</i>	<i>Imaginary</i>	<i>Modulus</i>	<i>Frequency</i>
MA					
	Root 1	-1.0000	0.0000	1.0000	0.5000

Tahlil natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, taklif qilinayotgan model keyingi davr uchun prognoz qiymatlarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Ya’ni, uning ishonchlilik darajasi ilmiy jihatdan asoslangan. Keltirilganlarga tayangan holda ushbu model asosida 2024-2028-yillar uchun viloyatda oilaviy mehmon uyi va mehmon uylari sonini prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (7-jadval).

¹³ Манба: муаллиф ишланмаси

**Buxoro viloyatidagi oilaviy mehmon uyi va mehmon uylari sonining
prognoz qiymatlari**

For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$				
Yillar	Prognoz qiymatlari	Oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati	Standart xatolik ko'rsatkichi	95 foizlik interval qiymatlari
2025	391	123,4	37,8851	(317,002, 465,509)
2026	479	122,4	50,8282	(379,410, 578,653)
2027	581	121,4	61,0879	(461,676, 701,137)
2028	700	120,3	69,8567	(562,586, 836,419)

Oilaviy mehmon uyi va mehmon uylarining rivojlanishi huquqiy asoslarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, ushbu yo'nalishlarda ishlarning olib borilayotganligi, ya'ni institutsional islohotlar sohaning keyingi yillardagi barqaror o'sishi kafolati bo'lib xizmat qiladi. Muallif fikricha, joylashtirish vositalari bilan bog'liq muammoni yechishda ushbu yo'nalish imkoniyatlaridan foydalanish, kapital va vaqtdan yutish imkoniyatini yaratib beradi.

Dissertatsiyaning **“Turistik hududlarni jozibador destinatsiyaga aylantirishning konseptual va metodologik yondashuvlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida turistik hududlarni boshqarish organlarining jozibador destinatsiyalarni shakllantirishga qaratilgan strategik marketing va menejment yondashuvi tadqiq etilib, “Raqamli tafovut” (Digital divide) yondashuvi asosida destinatsiya jozibadorligini baholashning “raqamlashganlik indeksi”, turizm destinatsiyalari jozibadorligini baholashning “22 omilli” metodikalari ishlab chiqilgan hamda Buxoro viloyati tumanlarining salohiyatini aniqlashda qo'llanilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-mayda qabul qilingan “Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-76-son Farmoni doirasida aholi, tadbirkorlik subyektlari hamda davlat organlari va tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni raqamlashtirish, shuningdek, raqamli xizmatlar va servislardan foydalanish uchun qulay bo'lgan shart-sharoitlar yaratish, axborot tizimlari va resurslari asosida hududlarda zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi “Raqamli hudud” dasturini amalga oshirish, raqamli texnologiyalar bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy va sifatli raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda axborot texnologiyalarini joriy etish va ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar sifati ustidan samarali raqamli nazoratni yo'lga qo'yish belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari, turizm destinatsiyalarini shakllantirish va ularning jozibadorligini oshirish faoliyatida raqamli tafovut ta'sirini kamaytirish yoki butkul yo'qotishda ahamiyatlidir.

Muallif fikricha, turizm destinatsiyasi faoliyatida turizm iste'molchilari ya'ni turistlarning o'zgaruvchan talab hamda ehtiyojlaridan uzluksiz boxabar bo'lib borish bevosita samaradorlik ko'rsatkichlarida aks etishini inobatga olib, hozirgi

kunda insonlarning texnologiyalarga tobora bogʻlanib qolayotganligi, raqamli gadgetlarsiz zamonaviy turistlar hayotini tasavvur qilish deyarli imkonsiz masalaga aylanib qolayotganligi, destinatsiya *raqamli makoni* tushunchasining paydo boʻlishiga olib keldi.

Muallif fikriga koʻra, turizm destinatsiyasining raqamli makonida internet va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻlmagan insonlar foydalanish imkoniyatiga ega insonlarning tarmoq faoliyatidagi mavjud toʻsiqlar *raqamli tafovutning* shakllanish manbai sifatida qaralishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi statistika agentligi maʼlumotlariga koʻra, mamlakatimizda 2024-yil 1-yanvar holatiga koʻra, internet tarmogʻiga ulangan jami abonentlar soni 30,1 million nafarni tashkil etib, ushbu koʻrsatkich bir yil avvalgi natijalarga nisbatan solishtirganda 12,5 foizga oshgan¹⁴. 2024-yilning dastlabki yarim yilligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) umumiy xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi hissasi 2,4 foizni tashkil etgan¹⁵. Demak, internetdan foydalanuvchi abonentlar koʻrsatkichlarining oʻsishi sezilarli miqdorda amalga oshib, buning natijasida raqamli texnologiyalardan foydalanuvchilar soni ham shunga muvofiq koʻpayishi, barcha tarmoqlar singari jozibador turizm destinatsiya xizmatlari faoliyati jarayonlarida ham katta oʻrin tutib, raqamli tafovut koʻrsatkichlarining ijobiy signallarni berishiga tayanilgan holda xizmat koʻrsatishni mutanosib rejalashtirish va amalga oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Afshona va Shirin jozibador turizm destinatsiyalariga ichki turizm oqimini keng miqyosda jalb etish imkoniyatlarini tahlil etar ekanmiz, respublikamizning 12 ta viloyati, poytaxt Toshkent shahri hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasida hozirda istiqomat qilib kelayotgan doimiy aholi soni va mazkur hududlarda internet tarmogʻiga ulangan abonentlar soni (jismoniy shaxslar), shuningdek, AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni qiyosiy tahlil qilindi.

Statistik maʼlumotlarga tayanilgan holda, mamlakatimiz hududlari raqamlashganlik indeksi (RI) koʻrsatkichlari hisoblanib, *50-80%lik koʻrsatkich oʻrta daraja (OʻD), 81-100% yuqori daraja (YD), 101-200% oʻta yuqori daraja (OʻYD) lar boʻyicha toifalash metodikasi ishlab chiqildi* (8-jadval).

8-jadval

Oʻzbekiston hududlari raqamlashganlik indeksi (RI) koʻrsatkichlari¹⁶

Hudud	Koʻrsatkich (%)	RI	Hudud	Koʻrsatkich (%)	RI
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	72	OʻD	Samarqand viloyati	62,3	OʻD
Andijon viloyati	66	OʻD	Surxondaryo viloyati	57,1	OʻD
Buxoro viloyati	71	OʻD	Sirdaryo viloyati	78	YD
Jizzax viloyati	63,3	OʻD	Toshkent viloyati	62,4	OʻD
Qashqadaryo viloyati	58	OʻD	Fargʻona viloyati	90,3	YD
Navoiy viloyati	83	YD	Xorazm viloyati	71,3	OʻD
Namangan viloyati	64	OʻD	Toshkent shahri	171	OʻYD

¹⁴<https://andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/11862-o-zbekistonda-internet-tarmog-iga-ulangan-abonentlar-soni-qancha>

¹⁵ <https://stat.uz/uz/>

¹⁶ Muallif ishlanmasi

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent shahri o'ta yuqori darajadagi raqamlashganlik indeksiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Navoiy, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlari yuqori darajadagi raqamlashganlik indeksiga ega ekanligi aniqlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon viloyati, Buxoro viloyati, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati, Namangan viloyati, Samarqand viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati va Xorazm viloyatlari o'rta darajadagi raqamlashganlik indeksiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Talab shakllanuvchi hududlardagi raqamli tafovutni tahlil etar ekanmiz, o'z-o'zidan taklif shakllanuvchi destinatsiyalarda ham raqamli tafovutni o'rganish va biz urg'u qaratayotgan Shirin hamda Afshona turizm destinatsiyalarida raqamli tafovut bilan bog'liq salbiy vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz (9-jadval).

9-jadval

Shirin hamda Afshona turizm destinatsiyalarida raqamli tafovutni bartaraf etishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar¹⁷

T/r	Asosiy yo'nalishlar	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlarlar	Maqsadlar
1	Ulanish (Connectivity)	Internet infratuzilmasini rivojlantirish	Har bir sayohatgohda yuqori sifatli internetga ulanish imkoniyatini taqdim etish
		Mahalliy tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash	Raqamli xizmatlarga ulanish miqdorini oshirish
2	Qobiliyat (Capability)	Maxsus ta'lim va o'qitish dasturlarini ishlab chiqish	Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish
		Treninglar va seminarlar o'tkazish	Foydalanuvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish
3	Mazmun (Content)	Sifatli va qulay raqamli kontentni yaratish	Ma'lumotlarni oson qabul qilinishini ta'minlash
		Mahalliy o'ziga xoslik va madaniyatga mos kontentni ishlab chiqish	Foydalanuvchilar uchun qiziqarli va foydali resurslar yaratish
4	Ishonch va xavfsizlik (Confidence)	Foydalanuvchilarni raqamli texnologiyalarga qiziqtirish	Xizmatlarga bo'lgan ishonchni oshirish va muammolarni hal etishni o'rgatish
		Foydalanuvchilar bilan uzluksiz muloqot o'rnatish	Xizmat ko'rsatuvchilar hamda foydalanuvchilarning raqamli xavfsizlik va maxfiyligiga erishish
5	Davomiylilik (Continuity)	Uzluksiz faoliyat ko'rsatuvchi xizmat ko'rsatish tizimlarini yaratish	Raqamli texnologiyalarni muntazam ravishda yangilab borish va qo'llab-quvvatlash
		Foydalanuvchilarga muntazam texnik ko'mak taqdim etish	Raqamli xizmatlardan davomiy ravishda foydalanishni ta'minlash
6	Hamkorlik (Collaboration)	Mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik	Raqamli texnologiyalar sohasida inklyuzivlikni ta'minlash
		Xususiy sektor va davlat o'rtasida hamkorlik aloqalarini kuchaytirish	Resurslarni samarali taqsimlash

¹⁷ Muallif ishlanmasi

Destinatsiya jozibadorligini oshirishning “raqamli tafovut” (Digital divide) yondashuvini o‘rganish va tahlil etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Shirin va Afshona turizm destinatsiyalarini jozibador turizm destinatsiyasi sifatidagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishda mazkur hududlarda internet tezligining yuqori bo‘lishini ta‘minlash, mahalliy aholi vakillarining internetdan foydalanish salohiyatini va savodxonligini oshirish, texnik va texnologik ta‘minotning eng zamonaviylarini hududlarga kiritish imkoniyatlarini shakllantirish, yuqori malakali mahalliy mutaxassislarni tayyorlash maqsadida raqamli texnologiyalar sohasida o‘qitishning zamonaviy uslubiyotlarini joriy etish lozim;

2. Sayohatgohlarning turizm potensialini, mavjud shart-sharoitlarini, faoliyat yurituvchi personalning yuqori salohiyatini va analogi mavjud bo‘lmagan keng miqyosdagi xizmatlar imkoniyatini targ‘ib etishda, raqamli makonda marketing faoliyatini olib borish va reklama tarqatish jarayonlarida qilinadigan sarf-xarajatlar shunday asosda amalga oshirilishi lozimki, xarajatlar muvozanati raqamli tafovut ko‘rsatkichlari ijobiy bo‘lgan hududlarga yo‘naltirilganda yuqoriroq, aksincha o‘rta darajadagi hududlarda barqaror darajada hamda past darajadagi hududlarga yo‘naltirilishi maqsad qilinganda minimal taqsimotga bo‘ysunishi kerak;

3. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan raqamli tafovut ko‘rsatkichlari natijalariga ko‘ra, Toshkent shahri o‘ta yuqori darajadagi raqamlashganlik indeksiga ega hudud sifatida Afshona hamda Shirin turizm destinatsiyalari uchun potensial eng asosiy va daromad keltiruvchi turizm bozori sifatida qayd etildi. Navoiy, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlari esa yuqori darajadagi raqamlashganlik indeksi ko‘rsatkichiga ega hududlar sifatida potensial turistlarni jalb etishda asosiy turizm oqimi shakllanuvchi bozor sifatida belgilandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon viloyati, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati, Namangan viloyati, Samarqand viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati va Xorazm viloyatlari o‘rta darajadagi raqamlashganlik indeksi ko‘rsatkichiga ega hududlar sifatida baholanib, yuqorida qayd etilgan marketing yondashuviga asoslanishi lozimligi muallif tomonidan taklif etildi;

4. Jozibador destinatsiyalarda raqamli tafovutning bartaraf etilishi hududlarning turizm bozorlariga kirib borish imkoniyatlarini yanada tezlashtirib, natijada belgilangan strategik maqsadlarga qisqa fursatlarda, samarali tarzda erishilishiga asos vazifasini o‘taydi va turizm mahsulotlari targ‘ibot kanallarining oshishi hisobiga, bozor segmenti va qamrovining kengayishiga zamin yaratiladi.

Buxoro viloyati turizm destinatsiyalarining zamonaviy turizm bozori talabi nuqtai nazaridan jozibadorlik xususiyatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlillar amalga oshirilib, mazkur tahlillar natijasiga ko‘ra tanlab olingan sayohatgohlar muallif tomonidan taklif etilgan maxsus metodika vositasida baholanib, – “Oliy darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi”, “Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi”, “O‘rta darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi” hamda “Jozibador bo‘lmagan destinatsiya” singari klassifikatsiyaga ajratib chiqilgan.

Ishlab chiqilgan metodika asosida baholashlarni amalga oshirish maqsadida Buxoro viloyatining 11 ta tumani tanlab olindi (Buxoro hamda Kogon shaharlari tadqiqot jarayoniga kiritilmadi). Buxoro viloyati hududlarining jozibadorlikni baholash metodikasiga ko‘ra Olot tumani-D1, Qorovulbozor tumani-D7, Buxoro

tumani-D2, Peshku tumani-D8, Vobkent tumani-D3, Romitan tumani-D9, G'ijduvon tumani-D4, Jondor tumani-D10, Kogon tumani-D5, Shofirkon tumani-D11 sifatida shartli ravishda belgilandi.

To'plangan ma'lumotlar asosida Buxoro viloyati hududlarining destinatsion jozibadorligini baholash natijalari 10-jadvalda ifodalandi.

10-jadval

Buxoro viloyatida joylashgan destinatsiyalar jozibadorligini baholash natijalari¹⁸

T/r	Omillar	Destinatsiyalar										
		D1	D2	D3	D4	D5	D6	D7	D8	D9	D10	D11
1	Xavfsizlik indeksi ¹⁹	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2
2	Ob-havo	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
3	Atrof-muhit	0,4	2	2	2	0,6	2	0,8	2	0,8	2	2
4	Huquq ustuvorligi ²⁰	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
5	Moddiy madaniy me'ros obyektlari	0	0	2	2	2	1,5	2	2	2	2	2
6	Joylashtirish vositalari	1,2	1,2	0,9	1,8	0,6	1,8	0	0	0,3	0	0,3
7	Hududlar umumiy ovqatlanishdagi ulushi	1,2	1,7	1,8	2	1,5	1,6	1,1	1,5	1,9	1,4	1,3
8	Xizmat ko'rsatish hajmi	0,6	1	1,4	2	0,7	0,9	0,4	1,1	1,1	1,1	0,9
9	Internetdan foydalanish ²¹	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3
10	Raqamli texnologiya vositalari ²²	1,7	1,7	1,7	1,7	1,7	1,7	1,7	1,7	1,7	1,7	1,7
11	Mehnat resurslari	1,6	2	2	2	2	2	0,5	1,5	2	2	2
12	Hududlardagi korxonalarining moliyaviy natijalari (kichik korxonalardan tashqari)	1,4	0	1,6	0	1,9	1,5	2	1,8	1,7	0	1,5
13	Ixtisoslashuvi va biznes uchun mavjud sharoiti ²³	0,5	1,1	0,5	1,1	1,6	1,1	1,6	0,5	1,6	0,6	0,6
14	Qishloqda istiqomat qiluvchi	1,2	1,7	1,6	2	1,2	1,3	0,6	1,5	1,4	1,9	1,8

¹⁸ Muallif ishlanmasi

¹⁹ Safety Perceptions Index - 2023 Foundation Understanding the impact of risk around the world.

²⁰ <https://adliya.uz/ru/posts/hududlarning-huquq-ustuvorligi-indeksi-qaysi-hudud#!>

²¹ <https://www.speedtest.net/global-index>

²² <https://kun.uz/68271230?q=%2F68271230>

²³ <https://lex.uz/uz/docs/-6333225>

T/r	Omillar	Destinatsiyalar										
		D1	D2	D3	D4	D5	D6	D7	D8	D9	D10	D11
	aholi soni											
15	Buxoro viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi	1	0,9	0,9	1,1	1,1	0,9	1,1	0,9	0,9	2	1
16	Jamoatchilik faoliyati	0,9	1,6	1,7	1,6	1,6	1,5	1,6	1,4	1,4	1,4	1,5
17	Tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi ²⁴	1,3	1,4	1,4	1,4	1,5	1,4	1,5	1,4	1,4	1,4	1,4
18	Hududlar kesimida kiritilgan investitsiyalar hajmi	0,5	1	0,5	2	1	0,6	1,6	2	2	0,3	0,2
19	Qishloq aholi punktlari soni	1,4	2	2	2	1,8	1,6	1,2	1,8	2	1,8	1,8
20	Transport xizmatlari hajmi	1,1	1,6	1,5	2	1,2	1,3	1	1,7	1,8	1,9	1,4
21	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi	1,1	1,7	1,2	1,6	1	1,6	0,4	1,4	1,3	1,9	1,3
22	Tashkil topgan davri	1,8	2	2	2	2	2	1,6	1,8	2	2	2

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, muallif tomonidan asosiy urg'u qaratilayotgan Vobkent hamda Peshku tumanlari 2-toifadagi, ya'ni yuqori darajadagi turizm destinatsiyalari ekanligi ma'lum bo'ldi. Xususan, Vobkent tumani 31,5 ball bilan umumiy reytingda 3-o'rinda qayd etilgan bo'lsa, Peshku tumani 30,8 ball natija bilan 5-o'rinni egalladi. E'tiborlisi, Buxoro viloyatining tanlangan barcha hududlarida jozibador turizm destinatsiyalarini shakllantirish imkoniyatlari mavjud va bu borada eng yuqori ko'rsatkich 35,1 ball bilan G'ijduvon tumaniga tegishli bo'lib, eng past 23,7 ball Olot tumani hissasiga to'g'ri keldi. Hududlarni yakuniy baholash natijalari va egallagan o'rinlari 11-jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib, raqobatbardosh va barqaror turizm destinatsiyalarini shakllantirish maqsadida hududlar jozibadorlik darajasini aniqlovchisi sifatida Oliy darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi (DA1), yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi (DA2), o'rta darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi (DA3) hamda jozibador bo'lmagan destinatsiyalarni (DA4) biz tavsiya etayotgan metodika asosida baholash natijasida mamlakatimiz hududlarining destinatsion

²⁴ <https://b-indicator.uz/>

jozibadorlik darajasini ekspert usulida baholash orqali turizm destinatsiyalarini shakllantirish imkoniyatlari mavjud ekanligi aniqlandi.

11-jadval

Jozibadorlikni baholash metodikasi bo'yicha yakuniy natijalar²⁵

Destinatsiyalar	Yakuniy ballari	Yakuniy baholanish pozitsiyasi	Belgilanishi	Izoh
Olot tumani = D1	23,7	11	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Buxoro tumani = D2	29,4	9	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Vobkent tumani= D3	31,5	3	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
G'ijduvon tumani = D4	35,1	1	DA1	Oliy darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Kogon tumani = D5	29,8	7	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Qorako'l tumani = D6	31,1	4	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Qorovulbozor tumani= D7	25,5	10	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Peshku tumani = D8	30,8	5	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Romitan tuman = D9	32,1	2	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Jondor tumani = D10	30,2	6	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi
Shofirkon tumani = D11	29,5	8	DA2	Yuqori darajadagi jozibador turizm destinatsiyasi

Dissertatsiyaning **“Buxoro viloyatidagi salohiyati yuqori turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish istiqbollarini iqtisodiy baholash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida “Silk Road Stations” turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan, Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasining iqtisodiy samaradorligi baholangan, Shirin qishlog'ida etno-turizm muhitini yaratish va uni jozibador destinatsiyaga aylantirish istiqbollari baholangan.

Buxoro viloyati asosan cho'l mintaqasida joylashganligini, viloyatga transport vositalari orqali tashrif buyuradigan mahalliy hamda xorijiy sayyohlarning barchasi A-380 hamda M-37 avtomagistralidan o'tishini inobatga olib, mamlakatimizda xalqaro talablarga to'laqonli javob bera oladigan milliy avtomagistral barpo etish, uni dunyoning strategik muhim sanaluvchi chorrahalar bilan bog'lash, mahalliy va xalqaro ahamiyatdagi avtomagistral yo'l bo'ylarida har jihatdan qulay joylashuvga ega, zamonaviy infratuzilma obyektlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. 2023-yilda respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan umumiy hisobda 1 trln 35 mlrd so'm mablag'lar yo'naltirilib,

²⁵ Muallif ishlanmasi

viloyat hududidagi 1 ming 621 km umumiy foydalanishdagi va ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llari ta‘mirlandi. 2024-yil avgust oyi holatida Buxoro viloyatidagi mavjud avtomobil yo‘llari va ularning texnik holati ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra (12-jadval), viloyatda davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 1120 km, xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llari uzunligi esa 486 kmni tashkil etmoqda. Mavjud davlat ahamiyatidagi yo‘llarning 80,6 foizi yoki 903,5 km qismi, xalqaro ahamiyatdagi yo‘llarning esa 68,9 foizi yoki 335 km qismi qoniqarli holatda ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

12-jadval

Buxoro viloyatidagi avtomobil yo‘llari va ularning texnik holati²⁶

№	Yo‘l raqami	Avtomobil yo‘llarining nomi	Yo‘lning uzunligi, km	Shu jumladan, texnik holati		
				Qoniqarli (km)	Ta‘mirtalab (km)	Ta‘mirlanayotgan qismi (km)
		Davlat ahamiyatidagi yo‘llar	1120	903,5	149	67,5
		Xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar	486	335	113	38
1	M-37	“Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi”	155	111	19	25
2	A-380	“G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu”	289	195	94	-
3	A-380	a) Buxoro halqa yo‘li	42	29	-	13


Muallif fikriga ko‘ra, avtomobil yo‘llari texnik holatining qoniqarlilik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, viloyatga tashrif buyurgan turistlarning ilk navbatda shakllanadigan yo‘l infratuzilmasi borasidagi taassurotlari ijobiy ko‘rinish oladi, shuningdek, asosiy turizm destinatsiyasiga yetib borish davomida ko‘rsatiladigan xizmatlarning qulayligi va sifat darajasi yuqori bo‘lishi turistlarning ijobiy kayfiyatda ko‘zlangan sayohat manziliga yetib borishiga, natijada hordiq chiqarish, dam olish, ovqatlanish, xaridlarni amalga oshirish va boshqa shu kabi xizmatlardan kengroq foydalanishlariga turtki beradi. Bu esa sayohatgohlarning eng asosiy maqsadi bo‘lgan turizm daromadlari o‘shirishning bosh omillari sirasiga kiradi.

“Silk Road Stations” loyihasini amalga oshirishning bir qator tashkiliy yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ulardan tahlillarimiz natijasida aniqlangan eng asosiy 12 tasi 2-rasmda keltirilgan.

Tahlillar natijasiga ko‘ra “*Silk Road Stations*” loyihasini ishlab chiqishda bir qator iqtisodiy yo‘nalishlar aniq belgilab olingan bo‘lib (2-rasm), muallif fikriga ko‘ra mazkur yo‘nalishlar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan xizmat ko‘rsatish majmualari (rastalar nazarda tutilmoqda) iqtisodiy samaradorligini aniq hisob-kitob qilish, kutilmalarni aniqlashtirish, strategik ustuvorliklarni belgilash asnosida sarf-

²⁶ Buxoro viloyatidagi avtomobil yo‘llari va ularning texnik holatini ko‘rsatuvchi ochiq elektron ma‘lumoti. <https://uzavtoyul.uz/open-data/open-electronic-map-showing-state-of-roads/avtomobil-yollarining-holatini-korsatuvchi-ochiq-e>

xarajatlarning minimal miqdoriga erishish orqali maksimal daromad olish maqsadlarini ro'yobga chiqarishning asosiy yo'l ko'rsatuvchi "kompasi" vazifasini bajaradi.



2-rasm. "Silk Road Stations" loyihasining tashkiliy yo'nalishlari²⁷

Viloyatdagi mavjud magistral yo'llarning umumiy uzunligi 342 kmni tashkil etib, yo'l bo'yida jami 6 ta turizm-savdo rastalarini shakllantirish ko'zda tutilmoqda (3-rasm). Mazkur loyihaning ishga tushirilishi natijasida jami 600 nafar yoshlarning doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishiga erishiladi. Hisob-kitoblarga qaraganda har bir loyihaning jami qiymati 20 milliard so'mni tashkil etib, talab etiladigan yer maydon hajmi 3-5 gektar bo'lishi nazarda tutilgan va eng asosiysi unumdor yerlarni band qilishni istisno etib, mutlaqo unumsiz, sho'rlanishi yuqori, yoki nisbatan unumsiz yer maydonlarini tanlab olish hisobiga qishloq xo'jaligi manfaatlariga zarar yetkazmaslik hamda mavjud bo'sh turgan yer maydonlaridan samarali foydalanish inobatga olingan.

1-turizm rastasi Turkmaniston-Buxoro yo'nalishida M-37 yo'li yoqasida, Jondor tumani hududida, 2-turizm rastasi Buxoro-Kogon yo'nalishida A-380 yo'li yoqasida, Kogon tumani hududida, 3-turizm rastasi Buxoro-Xorazm yo'nalishida A-380 yo'li yoqasida Romitan tumani hududida, 4-turizm rastasi M-37 yo'li yoqasida Buxoro tumani hududida, 5-turizm rastasi M-37 yo'li yoqasida Vobkent

²⁷ Muallif ishlanmasi

tumani hududida, 6-turizm rastasi Buxoro-Navoiy yo‘nalishida M-37 yo‘li yoqasida G‘ijduvon tumani hududida bunyod etilishi maqsadga muvofiq.



3-rasm. Silk Road Stations loyihasining iqtisodiy yo‘nalishlari²⁸

Buxoro tumani Buxoro shahar, Kogon, Vobkent, Romitan, Qorovulbozor, Olot, Jondor tumanlari hamda Navoiy viloyati bilan chegaradosh bo‘lib, tuman hududidagi M-37, A-380, A-380A xalqaro yo‘llaridan kuniga 20 ming transport vositalari o‘tadi va yo‘l bo‘yi infratuzilma imkoniyatlari juda yuqori sanaladi²⁹. Demak, yil davomida o‘rta hisobda 7 milliondan ortiq transport vositalari asosiy yo‘nalishlarda qatnaydi va ularga yuqori sifatli xizmat turlarini ko‘rsatish imkoniyatlari mavjud sanalib, talab ham shunga mos ravishda o‘ta yuqoridir.

Yuqoridagi raqamlarga tayangan holda mazkur yo‘nalishda tashkil etiladigan turizm rastalaridagi taklif etiladigan turli xizmatlardan potensial foydalanuvchilarning miqdori hamda daromad hajmining prognoz ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi (13-jadval). Natijalarga ko‘ra, eng past darajadagi kutilmalar holatida yillik daromad hajmi 730 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, eng optimistik prognoz ko‘rsatkichlari 18 250 000 AQSh dollar natijani taqdim etdi. Potensial iste‘molchilarning xarajatlari o‘rtacha 10-50 AQSh dollari miqdorida deb baholandi.

Kogon va Buxoro shaharlari, Kogon va Qorovulbozor tumanlari bilan chegaradosh, shahar hududidagi A-380 xalqaro yo‘lidan kuniga 4,5 ming transport o‘tadi. Vobkent tumani esa Navoiy viloyati, Peshku, Romitan, Buxoro va Shofirkon tumanlari bilan chegaradosh, tuman hududidagi M-37 xalqaro yo‘lidan kuniga 10 ming transport o‘tadi. G‘ijduvon tumani Navoiy viloyati, Vobkent, Shofirkon

²⁸ Muallif ishlanmasi

²⁹<https://asr.gov.uz/wp-content/uploads/2024/06/buxoro-viloyati-swot-tahlili.pdf> Strategik islohotlar agentligi tomonidan Buxoro viloyati SWOT-tahlili.

tumanlari bilan chegaradosh, tuman hududidagi M-37 xalqaro yo‘lidan kuniga 10 ming transport o‘tadi³⁰.

13-jadval

Buxoro tumani M-37, A-380, A-380a yo‘l yoqasidagi turizm rastalarida xizmat ko‘rsatish va daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari

Kunlik mashina qatnovi	Yillik Mashina qatnovi	1% lik qamrov	2% lik qamrov	3% lik qamrov	4% lik qamrov	5% lik qamrov
20 000	7 300 000	73 000	146 000	219 000	292 000	365 000
O‘rtacha xarajat miqdori	Daromadlar prognozi (AQSh dollarida)					
10 \$	730 000	1 460 000	2 190 000	2 920 000	3 650 000	
15 \$	1 095 000	2 190 000	3 285 000	4 380 000	5 475 000	
20 \$	1 460 000	2 920 000	4 380 000	5 840 000	7 300 000	
25 \$	1 825 000	3 650 000	5 475 000	7 300 000	9 125 000	
30 \$	2 190 000	4 380 000	6 570 000	8 760 000	10 950 000	
35 \$	2 555 000	5 110 000	7 665 000	10 220 000	12 775 000	
40 \$	2 920 000	5 840 000	8 760 000	11 680 000	14 600 000	
45 \$	3 285 000	6 570 000	9 855 000	13 140 000	16 425 000	
50 \$	3 650 000	7 300 000	10 950 000	14 600 000	18 250 000	

Demak, har ikki tuman yonalishlaridagi transport oqimi deyarli bir xil ekanligini inobatga olib, yuqoridagi prognozlar mazkur yo‘nalishga moslashtirilgan holda hisoblab chiqilganida, eng past darajadagi kutilmalar ko‘rsatkichi yiliga o‘rta hisobda 3 650 000 AQSh dollari, optimistik ko‘rsatkichlar 9 125 000 AQSh dollarini tashkil etdi.

XULOSA

Turistik hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Destinatsiya jozibadorligi konsepsiyasi XX asrning 60-yillaridan e‘tiboran ilmiy jamoatchilik tomonidan keng muhokama qilib kelinmoqda va uzoq vaqt mobaynida o‘tkazilgan izlanishlar hamda o‘rganishlar mavzuga oid universal baholash metodologiyasini shakllantira olmadi, aksincha mutaxassislarining bu boradagi yondashuvlari turli tarmoqlarga ajralishiga sabab bo‘ldi. Hozirgi kungacha juda ko‘plab olimlar destinatsiya jozibadorligi va uni shakllantiruvchi jihatlar, qaror qabul qilish (maqsadli bozorni tanlash) jarayoniga ta’sir o‘tkazuvchi omillarni aniqlashtirish yuzasidan izlanishlar o‘tkazmoqdalar va destinatsiya jozibadorligi hududning xususiyatlari va u yerda istiqomat qiluvchi insonlargagina emas, balki har bir maqsadli bozorda mavjud bo‘lgan o‘ziga xosliklarga ham bog‘liqdir, degan xulosaga kelindi.

2. So‘nggi yillarda destinatsiyalarni klasterlashtirish mavzusiga oid ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo‘lsada, bunda klasterlarni shakllantirishning

³⁰<https://asr.gov.uz/wp-content/uploads/2024/06/buxoro-viloyati-swot-tahlili.pdf> Strategik islohotlar agentligi tomonidan Buxoro viloyati SWOT-tahlili.

bosqichlari va an'anaviy uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishga asosiy e'tibor qaratilib, klasterlashtirishda jozibadorlikning ilmiy va amaliy ahamiyatini aniqlashtirish borasida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Ya'ni mavjud tadqiqotlarda hududlarning resurs potentsiali va turistlarni jalb etish imkoniyatlari o'rganilgan, biroq sayohatgohning klasterlashtirishgacha va klasterlashtirishdan keyingi jozibadorlik o'chovlarini aniqlashtirish va baholash mezonlari e'tibordan chetda qolgan. Muallif fikriga ko'ra, jozibador destinatsiya resurslari turistlarni jalb qiluvchi asosiy va muhim vosita hamda to'g'ridan-to'g'ri turistik talabning o'sib borish istiqboliga aloqador sanalib, kuchli boshqaruv tizimi nazoratida uning samaradorlik ko'rsatkichlari mustahkamlanib boradi.

3. Nazariy va tahliliy xulosalarga asoslangan holda muallif fikriga ko'ra, destinatsiya jozibadorligi bu – turistning ma'lum bir destinatsiyani tanlashdagi afzalliklariga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi sayohatgoh muhiti hamda tashrif maqsadi yo'naltirilgan hududning tashqi va ichki muhitiga xos xususiyatlar majmuasidir. Destinatsiyani tanlash afzalliklari deganda turistlar tomonidan raqobatchi turizm destinatsiyalari yoki turizm hududlari tomonidan taklif etilayotgan turli shakldagi xizmatlar, turistik mahsulotlar iste'moliga emas aynan ma'lum bir jozibador destinatsiyada yaratilgan tur mahsulotlarga potensial sarflanadigan mablag'larni yo'naltirishni ustun ko'rishga asos bo'luvchi, jalb qilish qobiliyatiga ega bo'lgan xususiyatlar majmuasining turist nazaridagi ustuvorliklari tushuniladi.

4. Tahlillar natijasida viloyat bo'yicha 2023-yilda jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2022-yilga nisbatan solishtirganda sezilarli miqdorda – 3445,30 milliard so'mga oshib, 21,7 foizga o'sishga erishilgani aniqlandi. Ahamiyatlisi pandemiyadan oldingi 2019-yil bilan qiyoslaganda umumiy o'sish ko'rsatkichi 10 880,90 milliard so'm yoki 129,3 foizga oshgani ma'lum bo'ldi. 2010-2023-yillar davomida xizmatlar hajmining o'rtacha o'sishi 31,4% ni tashkil etgan. 2020-yilda xizmatlar hajmi 16,9 %, 2021-yilda 27,75 %, 2022-yilda 26,04 % va nihoyat 2023-yilda yuqorida ta'kidlanganidek 21,7 % lik barqaror o'sish kuzatilib, o'rtacha hisoblaganda so'nggi to'rt yil davomida xizmatlar hajmi 23,08 foizlik ijobiy natijalarni ko'rsatayotganligi Buxoro viloyatida xizmatlar sohasining jadallik bilan rivojlanayotganligini tasdiqlaydi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar o'sishi 34,7 % ga yetdi va yil yakunida ko'rsatkichlar yanada ijobiy natijalarni qayd etishiga yetarlicha asoslar mavjud.

5. Amalga oshirilgan prognoz natijalari ko'rsatishicha, viloyatda tashrif buyuruvchi turistlar sonining keskin sur'atlardagi o'sishi kutilmoqda, ya'ni keyingi besh yilda ular soni 3,2 barobarga oshib, shunga mos bo'lgan infratuzilma shakllanishi lozim bo'ladi. Prognozlar, mavjud tendensiya bo'yicha joylashtirish vositalari soni keyingi besh yillikda 2,3 barobarga oshishini ko'rsatmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishda istiqbolli yo'nalish sifatida qaralayotgan qishloqlarda oilaviy mehmon uylarini tashkil etish orqali mehmon uylari soni 2,6 barobarga oshishi kutilmoqda. Muallif fikricha, bu ko'rsatkichlar turistlar sonining oshishiga mos joylashtirish vositalari soni o'sishini ta'minlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

6. Tadqiqotlar natijasida “Raqamli tafovut” (Digital divide) yondashuvi asosida destinatsiya jozibadorligini baholashning “raqamlashganlik indeksi” metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodika jozibador turizm destinatsiyalarini shakllantirish jarayonida raqamli transformatsiyaning mavjud rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishni soddalashtirib, raqamli tafovut hamda destinatsiya jozibadorligi o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlashtiradi hamda mavjud raqamli tafovutning salbiy ko‘rsatkichlarining turizm destinatsiyasi jozibadorligiga aks ta’sir o‘tkazishini ilmiy isbotlash imkoniyati yuzaga keldi.

7. Shirin va Afshona turizm destinatsiyalarini jozibador turizm destinatsiyasi sifatidagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishda mazkur hududlarda internet tezligining yuqori bo‘lishini taminlash, mahalliy aholi vakillarining internetdan foydalanish salohiyatini va savodxonligini oshirish, texnik va texnologik ta’minotning eng zamonaviylarini hududlarga kiritish imkoniyatlarini shakllantirish, yuqori malakali mahalliy mutaxasislarni tayyorlash maqsadida raqamli texnologiyalar sohasida o‘qitishning zamonaviy uslubiyotlarini joriy etish lozim.

8. Mustaqil sayohatchilarning qadriyatlar tizimi va afzallakilarini inobatga olib, malakat bo‘ylab shaxsiy avtomashinasida sayohatga chiqqanlarga moslashgan infratuzilmani kengaytirish maqsadida, Buxoro viloyati hududidan o‘tuvchi A-380 va M-37 avtomagistrali (yo‘l bo‘yi)da tashkil etilishi ko‘zda tutilgan “Silk Road Stations” ya’ni turizm rastalari loyihalari muallif tomonidan taklif etildi. Loyihaning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari ishlab chiqilib, mazkur yo‘nalishlarga menejment faoliyati doirasida alohida yondashilishi natijasida loyihaning amaliyotga tadbiiq etish muddatlari qisqarib, jarayonlarning sifat jihatdan yuqori darajada amalga oshirilishiga, qolaversa ortiqcha sarf-xarajatlarning iqtisod qilinishiga va bozordagi pozitsiya mustahkamlanishi bilan aloqador maqsadlarning ro‘yobga chiqishiga erishiladi. Muallif tomonidan “Silk Road Stations” rastalarini shakllantirish va rivojlantirishga ta’sir o‘tkazuvchi omillar klassifikatsiyalandi va loyiha doirasida xorijiy hamda mahalliy mustaqil sayyohlar oqimini jalb etish va oshirib borish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

9. Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan “Turizm destinatsiyalari jozibadorligini baholashning “22 omilli” metodikasi ishlab chiqildi va uni Buxoro viloyati tumanlariga qo‘llagan holda natijalar olindi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, muallif tomonidan asosiy urg‘u qaratilayotgan Vobkent hamda Peshku tumanlari 2-toifadagi ya’ni yuqori darajadagi turizm destinatsiyalari ekanligi ma’lum bo‘ldi. Xususan, Vobkent tumani 31,5 ball bilan umumiy reytingda 3-o‘rinda qayd etilgan bo‘lsa, Peshku tumani 30,8 ball natija bilan 5-o‘rinni egalladi. E’tiborlisi, Buxoro viloyatining tanlangan hududlarida jozibador turizm destinatsiyalarini shakllantirish imkoniyatlari barcha hududlarda mavjud va bu borada eng yuqori ko‘rsatkich 35,1 ball bilan G‘ijduvon tumaniga tegishli bo‘lib, eng past 23,7 ball Olot tumani hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi turistik salohiyati yuqori hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirishning konseptual va metodologik asoslarini takomillashtirish imkonini berib, Buxoro viloyatidagi salohiyati yuqori turizm qishloqlari va hududlarga turistik oqimni ko‘paytirish orqali aholini ish bilan band

qilish va farovonligini oshirish bilan birga mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning 2021-2026-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasidagi turizm bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishga ham xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/27.09.2024.1.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

БОБОКАЛОНОВ СУХРОБЖОН РАМАЗОНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНО-
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ
ТУРИСТИЧЕСКИХ РЕГИОНОВ В ПРИВЛЕКАТЕЛЬНЫЕ
ДЕСТИНАЦИИ (на примере Бухарской области)**

08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) экономических наук

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером B2024.4.DSc/Iqt810 в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и на Информационном образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz)

Научный консультант: Хамидов Обиджон Хафизович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Низамов Аслитдин Бадрединович
доктор экономических наук, профессор
Алимова Машхура Тайирхановна
доктор экономических наук, профессор
Сафаров Баходирхон Шахриёрович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится в 16⁰⁰ часов 16.05 2025 года на заседании Научного совета PhD. 03/05.05.2023.I. 72.05 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (220114, г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 613). (Адрес: г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, e-mail: , e-mail: info@buxdu.uz

Автореферат диссертации разослан 28 aprel 2025 года
(реестр протокола рассылки № ___ от « ___ » _____ 2025 года



Б.Навруз-Зода

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Д.Ш.Явмутов

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

А.О.Очилов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в результате усиливающейся интеграции мирового туристического рынка вопрос обеспечения привлекательности туристических дестинаций приобретает первостепенное значение. Соответственно, достигается устойчивый рост туристического потока за счет укрепления имиджа туристических дестинаций, повышения их привлекательности на основе последовательного проведения стратегической маркетинговой политики. «В 2023 году сфера туризма составила 9,1% мирового валового внутреннего продукта, то есть 191,8 млрд долларов США, в отрасли занято 24,2 млн человек», приоритетное значение приобретают вопросы достижения конкурентоспособности путем превращения туристических регионов в привлекательные дестинации и диверсификации туристических услуг, имеено поэтому необходимо совершенствовать концептуальные и методологические основы данной проблемы.

В мире в условиях глобализации проводится ряд научных исследований, направленных на совершенствование концептуальных и методологических основ превращения туристических регионов в привлекательные дестинации. В частности, к приоритетным направлениям относятся проведение научных исследований по совершенствованию методов оценки привлекательности дестинаций, разработке методики оценки цифровой привлекательности дестинаций, институциональных основ стратегического маркетинга и менеджмента дестинациями, а также методологии определения индекса цифровизации дестинаций.

В Узбекистане в качестве одного из приоритетных направлений государственной политики уделяется внимание устойчивому увеличению доходов от туристической отрасли путем коммерциализации конкурентоспособных на глобальном уровне туристических услуг на основе формирования привлекательных направлений. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в рамках программы «Путешествуйте по Узбекистану» предусмотрено увеличить число местных туристов до более чем 12 миллионов и довести число иностранных туристов, посещающих республику, до 9 миллионов¹. Процесс достижения этих результатов указывает на необходимость проведения научно-практических исследований, направленных на диверсификацию туристических пакетов путем разработки новых туристических маршрутов с учетом возможностей сел с высоким туристическим потенциалом, расположенных в Бухарской области, а также на совершенствование концептуальных и методологических основ превращения туристических регионов в привлекательные дестинации.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-9 «О мерах по резкому увеличению потока иностранных

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>

туристов в республику и дальнейшему ускорению внутреннего туризма» от 12 января 2024 года, №УП-111 «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере инвестиций, промышленности и торговли в рамках административных реформ» от 26 июля 2023 года, №УП-75 «Об организационных мерах по совершенствованию государственного управления в сферах туризма, культурного наследия и спорта» от 18 февраля 2022 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-135 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики и дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов» от 26 апреля 2023 года, №ПП-238 «О мерах по дальнейшему ускорению реформ в сфере туризма и эффективной организации системы государственного управления в сфере» от 27 июля 2023 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №ПКМ-606 «О дополнительных мерах по ускорению инновационной и инвестиционной деятельности в регионах республики» от 15 октября 2022 года, №ПКМ - 543 «О мерах по дальнейшему развитию сферы туризма в Бухарской области в 2022-2026 годах» от 28 сентября 2022 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

